

METOKOGNITIZM: TIZIMLI REFLEKSIYA MUHITI**Xamidova Komila Maxmudovna****Andijon viloyati pedagogik mahorat****markazi pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi.****kxamidova850@gmail.com****META COGNITION: A SYSTEM REFLECTION ENVIRONMENT****Khamidova Komila Makhmudovna****Teacher at the Department of Pedagogy and Psychology and Educational Technologies****Andijan Regional Center for Pedagogical Excellence.****kxamidova850@gmail.com****МЕТАПОЗНАНИЕ: СРЕДА ДЛЯ СИСТЕМАТИЧЕСКОЙ РЕФЛЕКСИИ****Хамидова Комила Махмудовна****Преподаватель кафедры педагогики и психологии образовательных технологий,****Андижанский областной центр педагогического мастерства.****kxamidova850@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20756339>****Annotatsiya**

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari direktor o'rinbosarlarining ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlarini muntazam yangilashda o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Abstract

This article aims to increase the self-management competence of deputy principals of secondary schools by regularly updating their professional knowledge, skills, and competencies, which are necessary for increasing the effectiveness of the educational process.

Аннотация

В данной статье рассматриваются современные подходы к регулярному обновлению профессиональных знаний, умений и навыков заместителей директоров общеобразовательных школ, необходимых для повышения эффективности образовательного процесса. Способствует повышению компетенции саморегуляции.

Kirish

Rahbarlik tashkilot muvaffaqiyatining eng muhim elementidir. Bu nima uchun rahbarlik qobiliyati eng ko'p talab qilinadigan ko'nikmalardan biri ekanligini tushuntiradi. Yagona qiyinchilik shundaki, samarali rahbarlar kam. Rahbarlikni rivojlantirish rahbarlar boshqaruv mahoratini yetishmasligini bartaraf etishga qaratilgan, ammo hozirgi rahbarlik boshqaruvida avtoritar uslub samaradorligi haqida keng tarqalgan norozilik mavjud. Rahbarlarni rivojlantirishga katta xarajatlar sarflanganiga qaramay, natijalar sarflangan resurslar bilan taqqoslanmaydi. Rahbarlikni rivojlantirishning an'anaviy elementlaridan (mazmun, kontekst, dastur davomiyligi va yetkazib berish) tashqari, tadqiqot va amaliyot chegaralari metakognitiv qobiliyat kabi e'tibordan chetda qolgan o'rganish elementlariga kengaytirilishi kerak, shuning uchun ushbu tadqiqot metakognitiv qobiliyatning rahbarlikni rivojlantirishga ta'sirini o'rganadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv qobiliyat rahbarlik rivojlanishini sezilarli darajada bashorat qiladi. Rahbarlikni rivojlantirish ishtirokchilari metakognitiv qobiliyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular rahbarlik ko'nikmalarini shunchalik yaxshi egallaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Metakognitsiya - bu insonning fikrlash jarayonlarini anglash va ularning orqasidagi naqshlarni tushunishdir. "Fikrlash haqida o'ylash" degan ma'noni anglatadi. Bu atama *meta* so'zining ildizidan kelib chiqqan bo'lib, "orqada" yoki "ustida" degan ma'noni anglatadi.¹

"Metakognitsiya" atamasi tom m'noda "bilimdan yuqori" degan ma'noni anglatadi va bilish haqidagi bilimni yoki norasmiyaroq aytganda, fikrlash haqida o'ylashni bildirish uchun ishlatiladi. Flavell metakognitsiyani bilish va bilishni boshqarish haqidagi bilim sifatida ta'riflagan. Masalan, agar inson A ni B ga qaraganda ko'proq o'rganishda qiynalayotganini sezsa yoki C ni haqiqat sifatida qabul qilishdan oldin ikki marta tekshirish kerakligi ularga ma'lum bo'lsa, metakognitsiya bilan shug'ullanadi².

A.Dermetriou tomonidan inson ongining ajralmas qismlari sifatida qaraladigan o'zini- o'zi kuzatish, o'zini ifodalash va o'zini-o'zi boshqarish jarayonlariga nisbatan giperkognitsiya atamasidan foydalangan.³

Metakognitsiya va o'zini-o'zi boshqarish yondashuvlar direktor o'rinbosarlarida o'z faoliyati haqida aniqroq fikr yuritishga yordam beradi, ko'pincha ularga boshqaruvni rejalashtirish, monitoring qilish va baholash uchun maxsus strategiyalarni o'rgatadi.

Metakognitsiya - bu boshqaruvchining o'z fikrlashini anglash, mulohaza yuritish va yo'naltirish qobiliyatidir. Bu nazariyaga yana yaqin misol taiqasida M.M.Gonzales, M Robertlarning direktor o'rinbosarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun "franchise school model" tizimi qo'llanganligini olsak bo'ladi⁴. Bu modelda tajribali direktor bir nechta maktabni boshqaradi va o'rinbosarlar amaliy rahbarlik tajribasini oladi.⁵ Maktab rahbarlari va direktor o'rinbosarlarining hamkorlikdagi boshqaruvi haqida Fordham Universiteti dotsenti E. L.Stosich ham o'rgangan⁶. O'zbekistonda metakognitiv kasalliklar (o'z fikrlash jarayonini boshqarish) va metakognitivizm masalalari, asosan, pedagogika va psixologiya fanlari o'rganilmoqda. Mahalliy olimlar va tadqiqotchilar boshqaruvchilarda tanqidiy fikrlash, o'zini fikr va mustaqil ta'lim olish ko'proq rivojlanishini rivojlantirishga ilmiy ishlar olib bormoqdalar.⁷ O'zbekistonlik tadqiqotchilar, Sh. X. Yo'lchiyev va M.I O'rinboyev tomonidan metakognitiv faoliyatni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Pedagogika fanlari doktori Mohro'yi Sodirzoda Muxtoriy⁸ metakognitiv o'qishva o'qitishning ko'rinishini, rivojlanish texnologiyalari va gamifikatsiya (o'yinlashtirish) ishlab chiqarishdan yuklash bo'yicha ilmiy ishlar

¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Metacognition>

² A.Dermetriou. "Kognitiv rivojlanishning neopiagetian nazariyalari" 1976-yil 232- bet

³ Demetriou, Andreas; Efklides, Anastasiya; Platsidu, Maria; Campbell, Robert L. (1993). "Rivojlanayotgan ongning arxitekturasi va dinamikasi: tajribaviy strukturalizm kognitiv rivojlanish nazariyalarini birlashtirish uchun asos sifatida". *Bola rivojlanishi tadqiqotlari jamiyati monografiyalari*.

⁴ Gonzales M.M., Roberts M. The Impact of a Franchise Model School Framework on the Leadership Development of Assistant Principals // Journal of School Leadership. — 2022.

⁵ Gonzales M.M., Roberts M. The Impact of a Franchise Model School Framework on the Leadership Development of Assistant Principals // Journal of School Leadership. — 2022.

⁶ Stosich E.L. Central Office Leadership for Instructional Improvement: Developing Collaborative Leadership Among Principals and Instructional Leadership Team Members // Teachers College Record. — 2020. — Vol. 122(9).

⁷ Sh.X.Yo'lchiyev.M.I.O'rinboyev Metokognitiv nazariyalar qo'llanma 2025-yil 28-bet.

⁸ M.Muhtoriy Metakognitiv o'qishva o'qitishning ko'rinishini, rivojlanish texnologiyalari va gamifikatsiya (o'yinlashtirish) Educational Management Administration & Leadership 2023-yil.

olib borilgan. E.M Rasulov⁹ o'zining ilmiy izlanishlarida kognitiv va metakognitiv faoliyatining o'zaro bog'liqligi, hal qilishda metakognitiv nazoratning o'rnini ilmiy-nazariy tekshiruv tahlil qilgan.

O'zini-o'zi boshqaradigan rahbar boshqaruvda metakognitiv strategiyalarni qo'llaydilar. Ular maqsadlar qo'yish, ishlashni kuzatish, taraqqiyotni aks ettirish va ko'rib chiqish uchun motivatsiya, fikr va xatti-harakatlarini boshqarish orqali o'zini- o'zi boshqarishni namoyish etadilar.

Tadqiqotlar direktor o'rinbosarlarinini metakognitiv strategiyalar bilan qurollantirishga qaratilgan. Bu rahbar o'rinbosari sifatida ularning mustaqilligini ta'minlaydi. O'qituvchilar metakognitsiya va o'zini-o'zi boshqarish strategiyalarini aniq o'qitishda muhim rol o'ynaydi. O'rinbosarlar shuningdek, metakognitsiyani modellashtirishlari shuningdek boshqa vositalar to'plami o'zini-o'zi boshqarish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yondashuvlar metakognitsiya va o'zini-o'zi boshqarishdagi strategiyalar va amaliyotlardan foydalanadigan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab boshqaruv tizimli ravishda amalga oshiriladigan murakkab jarayon sanaladi. Mazkur jarayonlarni tashkil etishda maktab administratsiyasi asosiy o'rin egallaydi. Bu borada bosh bo'g'in sifatida maktab direktori va uning turli masalalarda asosiy ko'makchilari sanalgan direktor o'rinbosarlari egallaydi.¹⁰ Shu borada rahbar o'rinbosarining egallanishi muhim bo'lgan bilimlar o'rganish uchun Flavell nazariyasi qo'llanilganda boshqaruv usullari smaraliroq tashkil etilishi mumkin. Metakognitsiya yoki o'z fikrlashi haqida o'ylash, uzoq muddatli o'rganish tajribasini osonlashtirish va umrbod o'rganuvchilarni rivojlantirishning kalitidir.

Metakognitsiyaning asosiy komponentlari

Metakognitsiya odatda ikkita asosiy o'lchovni o'z ichiga oladi

- Kognitiv bilim o'zingizning o'rganish jarayonlaringizni, strategiyalaringizni va qobiliyatlaringizni tushunish (masalan, ertalab yaxshiroq o'qishingiz yoki ma'lum bir mavzu bilan qiynalayotganingizni bilish).
- Kognitiv faoliyatni tartibga solish rejalashtirish (masalan, maqsadlarni belgilash), monitoring qilish (masalan, tushunishni tekshirish) va baholash (masalan, natijalarni ko'rib chiqish) orqali o'rganishni faol boshqarish.

Asosiy metakognitiv strategiyalar

- Ovoz chiqarib o'ylang muammoni hal qilish bosqichlarini tahlil qilish uchun fikrlash jarayonlarini og'zaki ifodalash.

O'z-o'ziga savol berish, o'ziga "Men bu mavzu haqida nimani bilaman?" yoki "Bu strategiya ish berdimi?" kabi savollarni berish.

Refleksiv kundalik yuritish, nimalar o'rganilgani va qanday o'rganilgani haqida fikrlarni yozib borish.

Tushunishni monitoring qilish, davom etishdan oldin tushunishni tekshirish uchun o'qish yoki o'rganish paytida pauza qilish.

⁹ E.M. Rasulov "TALABALARNING KOGNITIV VA METAKOGNITIV FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROL" 5-jild, 05-son, 78-83-betlar, 2025-yil oktyabr.

¹⁰ K.Xamidova. Maktab direktor o'rinbosarlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish .9th international scientific and practical conference. SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION 1-jild 9-son 2025-yil 5-noyabr

Metakognitionning afzalliklari

Yaxshilangan o'qish -bu o'quvchilarga yanada mustaqil, samarali va samarali bo'lishga yordam beradi.


Yaxshiroq tushunish, ayniqsa o'qish va murakkab muammolarni hal qilishda juda muhimdir.

Moslashuvchanlikni oshirish boshqaruvchida bitta kontekstda o'rganilgan strategiyalarni yangi vaziyatlarga qo'llash imkonini beradi.

Yuqori ijrochilar past ijrochilarga qaraganda yaxshiroq metakognitiv boshqaruv strategiyalaridan foydalanishga moyil.

Amerikalik Jon H.Flavellning "Metokognitatsiya nazariyasi" dan kelib chiqib, u tashkil etgan so'rovnoma mazmuni mohiyatini o'zida aks etgan kichik tadqiqot tashkil etdik. Bu tadqiqotimizda Andijon viloyati pedagogik mahorat markazida aprel va may oylarida o'z malakasini oshirish kurslarida o'qigan ma'naviy-marifiy va o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishitirok etdi. Diqqatni nazorat qilish, odatda konsentratsiya deb ataladi, shaxsning nimaga e'tibor berishini va nimaga e'tibor bermasligini tanlash qobiliyatini anglatadi.¹¹ Bu shuningdek, endogen diqqat yoki ijrochi diqqat sifatida ham tanilgan. Oddiy qilib aytganda, diqqatni nazorat qilish shaxsning diqqatni jamlash qobiliyati sifatida ta'riflanishi mumkin. Tahliliy bosqich hisoblanayotgan pedagogik tajriba-sinov ishining birinchi bosqichida Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazida ta'lim -tarbiya jarayonining samarali boshqarish usullari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalar darajasini o'rganish va tahlil qilish yuzasidan o'z-o'zini faoliyatini baholash yuzasidan so'rovnoma o'tkazildi. Savollar maktabni zamonaviy boshqaruvdagi ishitiroki, ularning samarali boshqaruv haqidagi bilimlari va maktabda ta'lim sifatini oshirishdagi muammolar, to'siqlar haqida ma'lumotlar olindi. Baholash jarayoniga ekspertlar sifatida ta'lim tashkilotining jami 102 nafar direktor o'rinbosarlari ishitirok etdi.

1.1 rasm.




Natijalarga ko'ra faoliyati davomida rejalashtiradi, lekin oxirgi natijalarni qayta tahlil qilish va ularni delegatsiya qilish masalasida yetarli bilimlarga ega emasligi oqibatida vaqt taqsimotiga ulgirmasligi, vazifalar faqat shoshilinch bo'lganida bajarishlarini anglatdi. Har safar belgilangan

¹¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Attentional_control

ishlar bajarilishidan oldin rejalashtirish haqida o'ylashini 17 nafar tinglovchi belgilagan, ya'ni barcha ishtirokchilarning 16% ijobiy, ba'zan o'zini -o'zi tahlil qilishi haqida 45 nafari 44% o'rta ma'lumot bergan, rejalashtirmasdan faoliyat yuritishi va o'zini tekshirmasligi to'g'risida 28 nafar, o'zini -o'zi tahlil qilmaslik haqida 10 nafar tinglovchi xabar bergan. Jami 45 nafari 44% "salbiy" ko'rsakichlarga erishgan.

Kurs davomida maktabni samarali boshqarish, self-menejment, zamonaviy rahbar va lider, boshqaruvda qarorlar qabul qilish kabi mavzularda ma'ruzalar tashkil etilib amaliy tahlil qilindi. O'quv kursining oxirgi darsida nazorat guruhlarida qayta maktabni boshqarishdagi vazifalari uning startegik reja tuzishga, o'zini-o'zi boshqarishdagi qarorlari va vaqt taqsimotiga qanday e'tibor qaratishi kerkligi haqidagi bilimlarni tekshirishga umumiyashtirilgan so'rovnomalar tashkil etilganida, tinglovchilarning 102 nafardan vaqt taqsimoti va o'z faoliyatini tahlil qilish yuzasidan startegik rejalarni ko'rib chiqqanligi, o'zini uzluksiz rovojlantirish (Self menejment)ga e'tibor qaratayotganligini ta'kidlagan.



Baholash jarayoniga ekspertlar sifatida malaka oshirish kursining jami 102 nafar aprel va may oyi direktor o'rinbosarlari jalb etildi.

Boshlang'ich so'rovnomalar natijalariga ko'ra yuqori ko'rsatkich 16% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich past hisoblanadi. Tahlillar natijasiga ko'ra bir oy davomida olingan bilimlar o'zlashtirish ko'rsatkichi amalda 37% ko'satdi.

Tajriba-sinov davomida o'tkazilgan yakuniy so'rovnomalar natijalari

1.2-rasmda keltirilgan. Bundan ko'rinadiki, yakuniy bosqichda boshqaruv samaradorligi 38% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 22% yuqori hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, metakognitsiya bu "o'z fikrlashing haqida o'ylash" psixologik jarayondir. Bu sizning qanday o'rganishingizni tushunishni, ruhiy holatingizni kuzatishni va muammolarni hal qilish strategiyalaringizni tartibga solishni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikma sizni passiv o'rganuvchidan faol, o'zini o'zi anglaydigan fikrlovchiga aylantiradi. Rahbar o'z faoliyatini doimiy tahlil qiladigan natijada metakognitiv fikrlash rivojlanadi, boshqaruvdagi xatolar kamayadi, professional o'sish tezlashadi, stressga chiqamlilik oshadi va yanada rivojlanish uchun quyidagilarni amalga oshirishni taklif qilamiz

-Direktor o'rinbosarlari mazmuniga o'z faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, refleksiya va o'z-o'zini baholashga oid rejalarni kiritish tavsiya etiladi. Bu rahbarlarning strategik va analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

-Maktab direktorining o'rinbosarlari uchun rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va refleksiya bosqichlarini qamrab oluvchi metokognitiv boshqaruv modeli yaratish.

-Har oyda direktor o'rinbosarlarining boshqaruv faoliyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash va kelgusi vazifalarni aniqlashga qaratilgan refleksiv seminarlar tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://en.wikipedia.org/wiki/Metacognition>
2. A.Dermetriou. "Kognitiv rivojlanishning neopiagetian nazariyalari "1976-yil 232- bet
3. A. Demetriou. *"Rivojlanayotgan ongning arxitekturasi va dinamikasi: Tajribaviy strukturalizm kognitiv rivojlanish nazariyalarini birlashtirish uchun asos sifatida". Bola rivojlanishi tadqiqotlari jamiyati monografiyalari .1993-yil*
4. Gonzales M.M., Roberts M. The Impact of a Franchise Model School Framework on the Leadership Development of Assistant Principals // Journal of School Leadership. — 2022.
5. Gonzales M.M., Roberts M. The Impact of a Franchise Model School Framework on the Leadership Development of Assistant Principals // Journal of School Leadership. — 2022.
6. Stosich E.L. Central Office Leadership for Instructional Improvement: Developing Collaborative Leadership Among Principals and Instructional Leadership Team Members // Teachers College Record. — 2020. — Vol. 122(9).
7. Sh.X.Yo'lchiyev.M.I.O'rinboyev Metokognitiv nazariyalar qo'llanma 2025-yil 28-bet.
8. M.Muhtoriy Metakognitiv o'qish va o'qitishning ko'rinishini, rivojlanish texnologiyalari va gamifikatsiya (o'yinlashtirish) Educational Management Administration & Leadership 2023-yil.
9. E.M. Rasulov *"Talabalarning kognitiv va metakognitiv faoliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli"* 5-jild, 05-son, 78–83-betlar, 2025-yil oktyabr.
10. K.Xamidova. Maktab direktor o'rinbosarlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. 9th international scientific and practical conference.SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION 1-jild 9-son 2025-yil 5-noyabr
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Attentional_control